

**O'zbekiston
Respublikasi
Fanlar Akademiyasi**

**O'zbekiston
Respublikasi
Qishloq va suv xo'jaligi
vazirligi**

**"O'zpaxtasanoat"
uyushmasi**

QO'SHMA BUYRUQ

2012 y.18 aprel

№ 10/2 70 49

Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi
Fanlar Akademiyasi, Qishloq va suv xo'jaligi
vazirligi, "O'zpaxtasanoat"
uyushmasi qoshida "Genomika va bioinformatika
markazi" ni tashkil etish to'g'risida**

Respublika genomika va bioinformatika yo'nalishlarida tadqiqodlarni yanada chuqurlashtirish, gen-injenerligi uslublari va gen-nokaut texnologiyasi asosida qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori sifatli hosildor, tezpishtar, qurg'oqchilikka, kasalliklarga, zararkunandalarga va noqulay muhit sharoitlariga chidamli hamda jahon bozori talablariga javob beradigan yangi navlarini yaratilishini jadallashtirish, genetik olim-mutaxassislarga yetarli shart - sharoit yaratishni ta'minlash maqsadida

BUYURAMIZ:

1. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti "Genom texnologiyalari markazi" negizida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "O'zpaxtasanoat" uyushmasi qoshida davlat korxonasi shaklidagi "Genomika va bioinformatika markazi" (keyingi o'rnlarda Markaz) tashkil etilsin.
2. Quyudagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin :
 - qisloq xo'jaligi ekinlari, dorivor va texnik o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlar genomlarini chuqur o'rganish, xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan qimmatbaho genlar tuzilishlarini va faolliklarini bioinformatik tahlilini amalga oshirish;
 - genlar injenerligi maqsadlarida turli genetik yo'llar tarkibiga kiradigan yangi oqsillar va fermentlar (proteomika), birlamchi va ikkilamchi metabolitlarni (metabolomika) o'rganish va uning asosida gen-injenerligi texnologiyalarini ishlab chiqish;

- tadqiq qilingan genomlar asosida zamonaviy gen va hujayra injenerligi, markerlarga asoslangan seleksiya, genom seleksiyasi, virtual seleksiya va modellashtirish dasturlarini ishlab chiqish va ular asosida yuqori sifatli, stress omillariga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi "genetik boyitilgan" navlarini yaratish;
 - genom texnologiyalari asosida yaratilgan "genetik boyitilgan" o'simliklar navlarining birlamchi urug'chilagini tashkil etish, ularni respublikaning turli mintaqalarida rayonlashtirish ishlarini amalga oshirish;
 - genetik o'zgartirilgan organizmlar va ularning mahsulotlarini sertifikatlashtirish;
 - genetika va bioinformatka bo'yicha o'zaro manfaatli xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirish, xorijiy hamda respublika oliy ta'lim va ilmiy muassasalarida kadrlarni tayyorlash, ularni muntazam ravishda malakasini oshirib borish.
3. Markaz xodimlarining umumiyligi soni 60 nafar, shu jumladan ilmiy xodimlar soni 42 nafar bo'lган tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Markaz: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "O'zpaxtasanoat" uyushmasi tarkibidagi davlat ilmiy tadqiqot muassasasi;

yuridik shaxs sifatida o'z ustavi, alohida balansi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g'aznachiligidagi hisob raqamiga ega;

alohida balansiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti "Genom texnologiyalar markazi" huquq va majburiyatlari, hususan olib borilayotgan ilmiy-texnik loyihalar bo'yicha huquqiy voris hisoblansin.

5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi (Aripov), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (Nurmatov), "O'zpaxtasanoat" uyushmasi (Bobojonov) bir oy muddatda Markaz Nizomini ishlab chiqish tasdiqlansin va davlat ro'yhatidan o'tkazilsin.

6. Markaz Toshknet viloyati Qibray tumani Universitet ko'chasi 2 uy manzilidagi Toshkent Davlat Agrar Universitetining "Biotajriba va bioeks" binosiga joylashtirilsin.

Ushbu binoni tegishli issiqxonalarini va hududi bilan birgalikda Toshknet viloyati Qibray tumani Universiteti balansidan markaz balansiga tasarruf etish huquqisiz, bepul topshirilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi (Aripov), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi (Nurmatov), "O'zpaxtasanoat" uyushmasi (Bobojonov) ushbu buyruqning 6-bandida ko'rsatilgan bino va issiqxonalarini tegishli hududi bilan birga topshirish-qabul qilish ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirsinlar.

8. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti (Usmanov) "Genom texnologiyalar markazi" balansidagi (1 may 2012 yil holatiga):

- barcha asbob-uskunalar, materiallar va reagentlar to'plamlari;
- ilmiy xodimlar, stajor-tadqiqodchi – izlanuvchi va katta ilmiy xodim izlanuvchi, texnik injener xodimlar va laborantlar tarkibi tegishli shtatlari bilan;
- davlat ilmiy dasturlari grantlari, investision loyihalar va xalqaro ilmiy grantlar mablag'lari;
- genom texnologiyasi olimlari tomonidan yaratilgan intelektual mulk;

- Qibray tumanida tashkil etilgan Maxsus urug'chilik uchastkasi, barcha qishloq xo'jaligi texnikalari, uskunalarini va jihozlari, qurilayotgan inshootlarini Markaz balansiga o'tkazishni ta'minlasinlar.

9. Respublikada gen-nokaut texnologiyasi asosida g'o'zaning yangi istiqbolli navlarini yaratish, ularni dala sharoitida sinash, urug'larini ko'paytirish, rayonlashtirish ishlariga ko'rsatayotgan yordamlarini, kelgusida qo'llab-quvvatlanishini inobatga olgan holda Markaz faoliyatida ushbu texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish va lisenziyalashdan olinadigan foydadagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ulushi 80 foizni, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi 5 foiz hamda "O'zpaxtasanoat" uyushmasining 15 foizni tashkil etishini qat'iy belgilab qo'yilsin.

10. Qayd qilinsin:

- O'zbekiston Respublika Fanlar Akademiyasi – Markazda fundamental va amaliy tadqiqotlarni dunyo fani darajasida rivojlantirish ularning davlat ilmiy- texnik dasturlari doirasida ustuvor ravishhda moliyalashtirish, ilmiy kadrlarni tayyorlash va mutaxassislarni chet mamlakatlarning nufuzli markazlarida malakasini oshirib borish hamda to'plangan bilim va tajribalarni oily talim tizimi bilan uzviy bog'liqligini t'aminlashga;

- Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi- Markazda yaratilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi istiqbolli navlarini dala sharoitlarida keng sinash, urug'larini ko'paytirish ishlab chiqarishga jadal joriy qilish hamda olib borilayotgan tadqiqotlar uchun ustuvor tarzda innovasiya mablag'larini ajratishga;

- "O'zpaxtasanoat" uyushmasi- Markaz moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun muntazam ravishda investisiya mablag'larini ajratib borish va yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishda moddiy yordam ko'rsatishga mas'uldirlar.

11. "O'zpaxtasanoat" uyushmasi tomonidan hozirgi paytda gen-nokaut texnologiyasi asosida go'zaning istiqbolli navlarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab quvvatlash maqsadida homiylik mablag'lari ajratilayotganligi inobatga olinsin.

12. Ushbu qo'shma buyruqning bajarilishini nazorat qilish o'z zimmamizda qoldiramiz.

O'zR FA prezidenti

Qsxv vaziri

"O'zpaxtasanoat" uyushmasi raisi

Sh. Salixov

Z. Ro'ziyev

B. Omonov